

“TASDIQLAYMAN”



“UMS” MChJ Ma’muriy direktori

M.R.Kamalidinov

2026-y. “18” 08

“UMS” MChJ (“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyati) ehtiyojlari uchun Toshkent shahri Yunusobod tumani Amir Temur shoh ko‘chasi 24-uy va Shayxontohur tumani Labzak ko‘chasi 1A-uy manzilida joylashgan Markaziy ofis va Ma’muriy binoda quyoshdan himoyalovchi jalyuzilarni tayyorlash va o‘rnatish

**xarid uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ**

Toshkent – 2026

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Tovarlar tavsifi (funksional va iste'mol xususiyatlari)

Quyoshdan himoyalovchi gorizontal jalyuzilar tayyorlash va o'rnatish.

2. Tovarlarini xarid qilish maqsadi

Mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida quyoshdan himoyalovchi gorizontal jalyuzilar xarid qilish

2.1. Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos

Byudjet moddasi 1.3.5.1 Binolar va xonalarga xizmat ko'rsatish \ Ma'muriy ofislar

2.2. Yangilik haqida ma'lumot

Yetkazib beriladigan tovar yangi, belgilangan maqsadda foydalanishga yaroqli, O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlarga va ushbu toifadagi tovarlar sifatiga doir talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Ishlab chiqarilgan yili 2025-yildan oldin emas.

3. Tovarlar/xizmatlarning texnik tavsiflari

Burmali matodan tayyorlangan jalyuzilar (pardalar) shisha oynaga pardalarning har bir burmasidan o'tadigan yo'naltirgichlar yordamida mahkamlanadi. Ularni yuqoridan va pastdan ochish, deraza o'rnining turli qismlarida mahkamlash mumkin.

Plisse pardasi (jalyuzi) konstruksiyasi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- plastik yoki alyuminiy profildan;
- plisse pardalari uchun mato kuyish va ishqalanishga chidamliligi yuqori bo'lgan yuqori sifatli zich poliesterdan tayyorlangan. Poliester sovuqqa chidamli, elastik, mustahkam material bo'lib, faol ishlatilganda namlik yuqori bo'lgan xonalarda ham o'zining dastlabki ko'rinishini saqlab qoladi;
- boshqaruv mexanizmi.

Xonadagi yorug'lik darajasini qulay boshqarish uchun konstruksiyalarni plastik derazalarga turli darajada o'rnatish mumkin. Xonaning yoritilganlik darajasini sozlash uchun plisse parda mexanizmi

- yuqori yoki pastki profildagi qulay tutqich, konstruksiyaning o'zi deraza o'rniga o'rnatiladi. Rangi
- Buyurtmachi tanloviga ko'ra.

Umumiy hajmi – 68,34 kv.m.

Rulonli pardalar, mato polotnosining vali orqali o'tkazilgan va roletdagidek kabi zanjirli mexanizmdan iborat ikki qavatli "kun-tun" matoli jalyuzilar.

Umumiy hajmi – 16,8 kv.m.

O'rnatish joyi: Markaziy ofis, Amir Temur shoh ko'chasi 24-uy. Xizmat xonalari: №301,303,306,308,310,318,418,614,707,710,709,708,706,907,530,503,513. Tennis xonasi va Labzak 1A ma'muriy binosidagi xizmat xonalari.

4. Komplektlash talablari

Tovar komplektatsiyasi ushbu texnik topshiriq tavsiflarining keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishi kerak.

5. Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyi bo'yicha talablar

Yetkazib berish manzili: Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 24-uy, Shayxontohur tumani Labzak ko'chasi 1A-uy.

Yetkazib berish muddati 2 kun ichida.

6. Kafolatlarni taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 12 oy.

Ishlab chiqilgan:

Ma'muriy faoliyatga hamrohlik qilish guruhi rahbari



B. Ubaydullayev

Tayyorladi:

Ma'muriy faoliyatga hamrohlik qilish guruhi yetakchi mutaxassisi



M.S. Ruzaykina